

**DUNYONI ZABT ETAYOTGAN AXBOROT YOKI MA'NAVIY-MAFKURAVIY  
TAHDIDLARDAN EHTIYOT BO'LING..!****Komilov Muxiddin Baxriddin o'g'li***Namangan Davlat Universiteti**Arxivshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Bugungi kunda axborotni qabul qilish va tarqatish inson hayoti va faoliyatining asosiy qismiga aylanadi. Ayniqsa jahon axboroti tizimi-internet bugungi kunda yoshlarimizning dunyo ilmi-fani yangiliklari bilan tezda va bevosita tanishuvida hamda zamonaviy bilimlarni egallashida muhim o'rin tutmoqda.

Biroq bu tizim orqali uzatilayotgan ma'lumotlarning tarqatilayotgani axborotlarning hammasi ham birdek yaxshilikka qaratilmaganligini anglash zarur. SHu bois ularni saralay bilish uchun turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kerak bo'adi.

Axborotni noholisligini anglash va uni ajratib olish uchun har bir inson o'z vatanini, oilasini farzandidek sevish kerak. Uning barcha jihatlarini bilishi zarur bo'ladi. Chunki onasi, oilasi sha'ni haqida eshitilgan har qanday nojo'ya vujudini darrov bezovta qilganidek vatan to'g'risida aytilgan begona gap ham uning qalbini larzaga solmog'i lozim.

Tole yorlaqamasa dunyoning eng boy davlati eng chiroyli mamlakatining qasrida yashasangiz ham baxtli bo'laolmaysiz. Bunga birgina misol, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburni keltirsak bo'ladi. U o'zga yurtta shoh bo'lishiga qaramasdan doimo o'z ona yurtini sog'inib vatan sog'inchi bilan yashadi. Aksincha o'z vataningizda uyingizda bo'lsangiz o'zingizni baxtiyor his etasiz. Buning uchun qalbingizda shukronalik tuyg'usi bo'lsa bas. SHu bois bugungi kunda falon mamlakatga borsangiz falon so'm pul topasiz degan gaplaringiz barchasi ham kishini o'z domiga tortavermasligi kerak. Xitoy xalqida "katta maqsadlar uchun qilinayotgan mehnatni rohat bil" degan maqol bor. Biz bugun katta maqsadlar uchun mahnat qilyapmiz. Ozingizni qiynalsakda porloq kelajakni barpo etish uchun intilyapmiz.

CHetga chiqib qora ishchi yoki xizmatkor bo'lish kerak emas. Aksincha, ularga nimadir o'rgatuvchi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi bo'lib bormog'imiz intellektual salohiyatimizning namoyish etib, «qoyile o'zbekning bolasini qarang, mana bu narsaning qulog'ini bir burab berib shuncha pulimizni olib ketdi» degan ularga achinarli bizga esa faxrlanarli gapni eshtish uchun borshimiz kerak.

Gohida Rossiyaning ayrim teleko'rsatuvlarida yerto'lalarda yotib zahlagan yerda turib noqonuniy faoliyat ko'rsatayotgansexlarda ishlayotgan ba'zi bir o'zbekistonlik va tojikistonlik, qirg'izistonlik qolaversa Markaziy Osiyodan borib ishlayotgan yigitlarni ko'rsatib qolishadi. Ularning axvolini ko'rib o'sha yerda topgan yuz so'ming qadirligi ekanligini qachon anglaysan, qadirdonim, qachon Vatan, oila qadrini bilasan degin

keladi. (Jalalov.S.M Ma'naviy-mafkuraviy tahdidilarning hozirgi kundagi ko'rinishlari. Namangan 2019.)

Xullas, bu mulohazalarimiz sirdan «Internet» tarmog'ida uzatilayotgan xabarlarga o'xshamaydi. Ammo gap shundaki, hoh «Internet»da yoki boshqa ommaviy axborot vositalarda bo'lsin O'zbekistonning, O'zbekistonlikning yutug'ini uning muvaffiqiyatini juda kamdan-kam yoritishida. SHuning uchun nomi dunyoga mashhur firma yoki ta'lim muassalarida ajoyib tarzda o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'lib xizmat qilayotgan o'zbek o'g'lonlari to'g'risida yozishmaydi. Amerikaning qaysi bir shtatida o'z nonini topib yeyayotgan, sho'ro zamonida cho'pon yoki mexanizatorning o'g'li bo'lgan yigitlarning muvaffiqiyatlarni aytishmaydi.

Vaholangi, ularning maqsadida uchinchi dunyo mamlakatlarining ishsizlari mablag' topish uchun rivojlangan davlatlarga ketishga majbur bo'lishayotganidan foydalanib, ularni arzon jismoniy kuchidan katta foyda ko'rish uchun turli yo'llar bilan aldab ishlatishdir.

«Internet»dan olingan mana bu axborotga diqqat qiling. SHimoliy Amerika va Evropada ishlab chiqarilayotgan engil sanoat mahsulotlarining aksar qismi muhojirlar mehnati evaziga yaratiladi. *AQSHda Disney qaxromoni –hindu qizi Pokaxontas tasviri aks etirilgan maykada bir soatda 375 tasi ishlab chiqarilar ekan. Uning narxi shu kiyimni yaratishda ishtirok etuvchi ishchining bir haftalik maoshiga teng kelar ekan.* ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) Mana endi tahlil qilib ko'raylik bir haftada 48 soat ish vaqti bo'lgan taqdirda, 15 mingdan ziyod mayka ishlab chiqariladi. Demak, million topib kelyapman degan shovvozlari kimni boy qilyapti.

Xullas, internet dunyoni zabt etmoqda. Ammo undagi axboratlarni tarqatuvchilar orasida g'ayr maqsadli, aldoqchi va firibgarlar ham yo'q emas. Masalan, internet orqali uzatilgan mana bu ma'lumotga qarang : bir kishi men katta boylikka ega bo'ldim , lekin uni o'zim ololmayman xozir qiyin ahvoldaman agar siz men bilan bog'lanib menga 400 AQSH dollari yuborsangiz men sizga o'sha pulni yuboraman keyin esa ikkovimiz o'sha pulni bo'lishib olamiz deb yuborilgan yolg'on xabarlar ham bor. Xatto u o'z manzilini ham kiritib qo'ygan yoki yana bir ma'lumot biz bilan bog'laning, falon ming dollar to'laymiz, deb aldovchilar borligiga ishonmagan kishiga, o'zbek tadbirkor yigiti Otabek Tashabekovning «Kristis» nomli kitobini o'qib chiqishni tavsiya etamiz. Unda yuz ming dollar turadigan gilamni atigi ikki-uch ming dollarga baholab, uni aldab qo'ymoqchi bo'lgan londonlik mug'ombirlarga qarshi kurashgan bu yigitning yaqin o'tmishdagi taqdiri chet elga bormoqchi bo'lgan kishilarga juda o'rnak bo'ladi.

Yuqorida aytganimizdek, bu dunyoda ayrim qalbi ,vujudi fisqu fasodga to'lib ketgan, birovlarining azoblanishini ko'rib rohat oladigan hudbin insonlar ham bor bo'lib ular xalqlarni ma'naviyatini yo'qotish uchun turli nayranglarni o'ylab topishmoqda. *“Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash*

yoʻlidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin”. ( Karimov.I.A Yuksak maʼnaviyat- engilmas kuch Toshkent 2008 ) .Shu bilan birga ular «Internet» tarmogʻi orqali inson sogʻligʻiga jiddiy zarar yetgazuvchi turli oʻyinlarni ham tarqatib kishi miya qon tomiriga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bu esa odamni oʻlimga ham olib kelishi mumkin. Xullas, bu mavzu oʻziga xos dolzarb boʻlib, uni chuqurroq yoritish uchun mutaxassislar fikri zarur boʻladi. Shu bois, yoshlarimizdan bu borada oʻz fikr-mulohazalariga ega boʻlgan va ularga qarshi tura oladigan barkamol avlodlar qilib tarbiyalash har bir ota-ona qolaversa oʻqituvchi-ustozlarni oldida turgan maʼsuliyatdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI:

1. 1.Karimov.I.A YUksak maʼnaviyat- engilmas kuch Toshkent 2008.
2. 2.Jalalov.S.M Maʼnaviy-mafkuraviy tahdidilarning hozirgi kundagi koʻrinishlari. Namangan 2019.
3. w.w.w.ziyonet.uz